

YANGILANISH JARAYONINING AN'ANAVIY QADRIYATLARGA TA'SIRI

*Xudoyberganov Sharifjon Shokiraliyevich
Qo'qon DPI katta o'qituvchisi*

Annotatsiya

Maqolada jamiyatni yangilanish jarayonida olib borilayotgan barcha islohotlar an'anaviy qadriyatlar negiziga tayanishi, milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga sodiqlik, o'z an'anaviy qadriyatlariga tayanib strategik maqsadlarni belgilashi xech bir boshqa millatga o'xshamagan o'z yo'li borligini anglash, ijtimoiy ongni yuksaltirishda mafkuraviy islohatlarning o'rniqa asosiy e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: qadryat, oila, jamiyat, davlat, yangilanish, milliy qadryatlar, umuminsoniy qadryatlar.

Jamiyatni yangilanish jarayonida olib borilayotgan barcha islohotlar an'anaviy qadriyatlar negiziga tayanishi muhimdir. Dunyo tarixidan ma'lumki, xar bir millat o'z milliy mustaqilligiga asrlar mobaynida shakllangan qadriyatlar tizimiga tayangan holdagina erishgan. Chunki milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga tayanmasdan o'ziga xos va mos davlat qurib bo'lmaydi. Xar bir yangi shakllanayotgan jamiyat milliy ramzlari: konstitutsiyasi, tili, milliy valyutasi, milliy madhiyasiga ega bo'lishi uni suveren davlat ekanligini anglatganidek, o'z an'anaviy qadriyatlariga tayanib strategik maqsadlarni belgilashi xech bir boshqa millatga o'xshamagan o'z yo'li borligini anglatadi. Ko'plab rivojlangan davlatlar o'z taraqqiyot yo'lini milliy an'ana va qadriyatlar negizida belgilagan va ayni damda shakllantirayotgan jamiyatining nazariy qoida va rejalarini shu asosda ishlab chiqqan. Mustaqil O'zbekiston ham shunday jarayonni boshdan kechirmoqda. Davlatimiz mustaqillirning dastlabki kunlaridanoq o'z taraqqiyot yo'lini aniq va ravshan belgilab oldi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti yo'lini shakllantirish jarayonida an'analar qadriyatlar va urf-odatlar e'tiborga olindi. Prezidentimiz ushbu jarayonni quyidagicha izohlaydi: "umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o'rganib, o'z zaminimizga tadbiq etishimiz lozim. Shu bilan birga milliy o'ziga xosligimizni, asrlar sinovidan o'tgan an'analarimizni, hamisha iymon-e'tiqod bilan yashash kabi hayotiy tamoyillarimizni ham saqlab, yuksaltirib borishimiz zarur"[1].

Hozirgi kunda tadqiqotchi va olimlar qadriyatlar masalasini atroflicha o'rganib, ular haqida ko'pgina ilmiy fikrlar bildirishayotgan bo'lsada, aynan an'anaviy qadriyatlar masalasi e'tibordan deyarli chetda turibdi. Bizningcha, jamiyatimiz sohalarini zamонавиylashtirishda amalga oshirilayotgan bugungi kundagi **an'anaviy** qadriyatlarni o'rganish, ularning mazmun-mohiyatini anglash, inson va jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini tahlil qilish masalalari amaliy ahamiyatga egadir. Shu ma'noda, tarixiy taraqqiyotimiz barqarorligini ta'minlovchi omillardan biri an'anaviy qadriyatlar bo'lib, bizningcha, u

Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda

ta’lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

muayyan ijtimoiy makonda istiqomat qiluvchi etnik birlikning jo‘g‘rofiy joylashuvi, tabiiy iklimi, ma’lum bir diniy yoki dunyoviy ta’limotga e’tiqodi, o‘zga etnoslar madaniyati va boshqa omillar ta’sirida shakllanib, ularni ruhiy yaqinligini ta’minlashga xizmat qiladigan hamda ushbu etnik birlik hayotining tartib-qoidalari, ular bilan bog‘liq milliy xususiyatlari vorisiyligini saqlaydigan qadriyatlar tizimidir.

Darhaqiqat an’anaviy qadriyatlar xalqimiz ko‘p asrlik tarixining ongimiz, fe’limizdagi muhridir. U suyak-suyagimizga, qon- qonimizga singib ketgan, dunyoqarashimiz, iymone’tiqodimizga aylanib qolgan urf-odatlarimizda kundalik turmushimizda san’atimizda namoyon bo‘ladigan hodisadir. Har bir xalqning o‘ziga xos tarixi, yashash muhiti, xo‘jalik faoliyati bor. Aynan ushbu omillar negizida ma’lum ko‘rinishdagi qadriyatlar tizimi shakllanadi. Inson ijtimoiy voqe’likdagi munosabatlarga muayyan turdag'i qadriyatlar asosida yondashadi. Albatta, imonli, insofli, halol bo‘lish, haromdan tiyilish, o‘ziga nimani ravo ko‘rsa o‘zgaga ham ravo ko‘rish, mehr-oqibatlilik kabi qadriyatlar millat va xudud tanlamasa kerak. Nega ular ming yillar davomida xalqning yuragida va tafakkurida saqlanib kelmoqda, degan tabiiy savol tug‘iladi. Bizningcha, ushbu qadriyatlar “zamonaviy jamiyat” qadriyatları kabi qandaydir “qiymat”lar yoki “ijtimoiy institut”lar bilan bog‘liq jarayonda emas, balki “insoniylik” xususiyatlari zamirida shakllangani bois umrboqiyidir. Hozirgi ijtimoiy yangilanishlar sharoitida xalqimizning ko‘p asrlik insonpavarlik an’analarini saqlash, ularning mazmunini yangi zamonaviy qadriyatlar bilan boyitish dolzarb ilmiy amaliy vazifa bo‘lib turibdi. Bizningcha, avvalo “insoniylik” tamoyillari asosiga qurilgan an’anaviy qadriyatlarimizni milliy mafkura asosida qayta baholash, ularning shaklini yangilamoq zarur. Albatta xalqimiz uzoq tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaxshi va yomon kunlarni boshdan kechirdi. Goho bosqinchilar ta’siri ostida adolat, tenglik va ozodlik uchun kurashgan bo‘lsa, ba’zan hurlik va mustaqillik tufayli juda katta yutuqlarga erishdi. Lekin har qanday vaziyatda asriy an’analaridan voz kechmadi. Aksincha ushbu an’analarni o‘z tajribalari bilan boyitib, keyingi avlodlarga qoldirish yo‘lida o‘z jonlarini qurban qilganliklari tarixdan ma’lum. Shu o‘rinda an’anaviy qadriyatlarni bugungi voqe’lik nuqtai-nazaridan tahlil qilib, ularni tub mazmunini saqlagan holda yangilash ajdodlarga munosib vorislik belgisidir.

An’anaviy qadriyatlardan biri ko‘p bolalikni olaylik. Bugun oila uchun ham, jamiyat uchun ham farzandlarning miqdori emas, sifati, jismoniy va ma’naviy barkamolligi muhimdir. Yoki saxiylik, saxovatlilik nochor va muhtojlarga avvalgiday sadaqa ko‘rinishida emas, balki, umummiliy ijtimoiy harakatga aylanib, insoniy burch sifatida bajariladigan qadriyatga aylanmog‘i lozim. Yoki sug‘orma dehqonchilikni olaylik. Yaxshi ma’lumki, xalqimizning asosiy qismi azaldan daryolar vohalarida yashagan va sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Chunonchi, bundan qariyb uch ming yil avval yozilgan “Avesto”da dehqonchilik eng ulug‘ kasb sifatida tavsiflanadi. [2]. Sug‘orma dehqonchilik esa mustahkam jamoa bo‘lib o‘troq yashashni taqozo qiladi.

Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta’lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

Mazkur omillar obektiv ravishda xalqimiz fe’li xarakterida muayyan xislat va fazilatlarni shakllantirgan. Bizningcha, ular quyidagilar: dehqonlik, er-suvga ixlos; mustahkam jamoalik(maxalla, qishloq), jamoa fikrini qadrlash; tug‘ilib o’sgan joyga bog‘langanlik, muqimlik; ajdodlar xotirasiga sadoqat; oilaparvarlik; qarindosh-urug‘chilik, qo‘ni-qo‘shnichilik kuchliligi; milliy, diniy hamjihatlik; urf-odatlarni qadrlash; xushchaqchaqlik, to‘y-tomoshalar ko‘pligi, xilma-xilligi; sabr-toqatlilik, andisha kuchliligi; ma’naviy saxiylik; pazandalik, milliy kulinariyamizning boyligi va boshqa ko‘plab milliy xususiyatlarimiz an’anaviy qadriyatlarimiz “beshigi” hisoblangan sug‘orma dexqonchilik fazilatini endi o‘sib kelayotgan qishloq yoshlarida shakllantirish, mustahkamlash jamiyatimiz uchun hayot mamot masalasidir. Buning uchun esa qishloq mehnati o‘z insoniy energiya sarfiga yarasha ijtimoiy ahamiyatiga ko‘ra yuksak darajada qadrlanmog‘i shart. Buning asosiy yo‘li dehqonga yanada erkinlik berish, qishloq xo‘jaligiga bozor munosabatlari tamoyillarini izchil qo‘llashdir. Chunonchi, dehqon mahsuloti sarflangan mehnat va real xarajatlar asosida baholanmog‘i lozim. Dehqoni to‘q, badavlat xalqgina farovon bo‘ladi.

An’anaviy qadriyatlar tizimini shakllanishida Sharqqa xos bo‘lgan jamoaviylik ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, an’analarga asoslangan jamoalarda shaxs o‘z orzu-maqсадlarini ijtimoiy voqe’lik bilan uyg‘un holda tasavvur qiladi, ya’ni inson intilayotgan “orzu daraxti” mevasini bir o‘zi emas, balki butun bir jamoa bilan baham ko‘rishni hohlaydi, shu ma’noda bu holat “ijtimoiy ma’suliyat”, “ijtimoiy daxldorlik”, “ijtimoiy-ma’naviy yaqinlik”, “hammaslakkilik” kabi qadriyatlarni shakllantiradi. Ushbu fikrlarni tor ma’noda jamoaviylikning “oltin qoidasi” “hamma bir kishi uchun, bir kishi hamma uchun” shiori orqali asoslash mumkin.

Shuningdek erkin mulkiy munosabatlarga asoslangan jamiyatga o‘tish jarayoni ma’lum ma’noda an’anaviy qadriyatlar strukturasini birmuncha o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Aslida, bozor iqtisodiyotiga asoslangan yangi xo‘jalik tizimi xalqimiz turmush-tarziga begona emas. Lekin ushbu jarayondagi o‘zgarishlar aholimiz iqtisodiy tafakkuridagi an’anaviy me’yorlarni zamonaviylashuvini talab qilmoqda. Millatimiz tarixidagi iqtisodiy taraqqiyot “insoniylik” mezonlariga xos bo‘lgan an’anaviy-iqtisodiy qadriyatlar tizimini shakllantirgan. Ular jumlasiga: halollik; saxovatlilik; xayr-ehsonga moyillilik; mahsulotini aybini aytib sotish farzligi; sudxo‘rlikning qoralanishi; o‘zga mulkiga ko‘z olaytirmaslik; o‘zi halol bilgan narsani o‘zgaga ravo ko‘rish kabi qadriyatlarni kiritish mumkin. Albatta hozirgi kunda xar bir fuqaro bozor munosabatlarning subekti sifatida hohlagan turdagи iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanishi mumkin. Lekin o‘z mahsulotini arzon, tezroq, qimmatroq sotish uchun “millat nomusi” hisoblangan an’anaviy qadriyatlarni mensimaslik o‘z o‘tmishiga hurmatsizlikdir. To‘g‘ri, ushbu kasb egalari “insoniylik” mezonlariga bo‘ysunishga majbur emas, qolaversa bozor munosabatlari

Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

sharoiti ko‘proq daromad topish uchun milliy axloqiy me’yorlarimizga zid bo‘lgan hatti-harakatlarni bajarishga majbur qiladi. Albatta G‘arb iqtisodiy muhitida bunday holat tabiy jarayon sifatida baholanadi. Ayniqsa hozirgi kunda jamiyat a’zolari iqtisodiy tafakkurida o‘zgarishlar kechayotgan bir paytda “qiymat”dan “qadr”ni ustun deb bilguvchi ma’naviy-axloqiy mexanizmni shakllantirish hamda amalda ijrosini ta’minlash dolzARB masaladir. Bu borada yurtboshimizning “savob ishni xar kim xar kuni qilish kerak”, “ajdodlarimizga munosib voris bo‘laylik”, “ma’naviy boylik moddiy boylikdan ming bora ustun”, “xalq ochlikka, yo‘qchilikka chidashi mumkin, lekin adolatsizlikka chiday olmaydi” kabi strategik ahamiyatga ega bo‘lgan chaqiriqlari negizida nafs ketidan ergashib, o‘z millati, xalqini aldash hisobiga boylik orttirayotgan kimsalarni an’anaviy qadriyatlarni unutmasdan, balki ularga amal kilib yashashga chorlaydi.

Jamiyatni yangilash jarayonida yuqoridagi kabi an’anaviy qadriyatlarni bugungi zamon talab va shartlariga moslashtirish zarur voqe’likdir. Ayni damda har bir o‘zgarish ma’naviy axloqiy qadriyatlarni yangilari bilan boyitishi hisobiga zamonaviylashadi. Ijtimoiy-tarixiy qonuniyatga aylangan an’anaviy qadriyatlarni etnik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlarini saqlashi bilan bir biridan farqlanadi. Masalan, o‘zbek xonardoniga mehmon kelsa, nima maqsadda kelgani ma’lum vaqt o‘tgach so‘raladi. Bu faqat o‘zbek millatiga xos bo‘lgan qadriyatdir. Ushbu an’anaviy qadriyatni zamonaviy jamiyat tarafdarlari “ular reforma va o‘zgarishlarga to‘sinqilik qiladi” [3] deb baholashmoqda. Albatta, “zamonaviy jamiyat”ga to‘xtovsiz yangilik, ijtimoiy hayotni tinimsiz isloh etish xos xususiyat bo‘lsada, aslida xar qanday ko‘rinishdagi jamiyatga xatto nigilizm ham hosdir. G‘arb jamiyatlari an’anaviylikni o‘zida saqlovchi narsa va hodisalarni konservativ nuqtai nazardan baholashadi. Jamiyatimiz a’zolari tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar esa an’anaviy qadriyatlarni mazmun va mohiyatini saqlagan holda ularni yanada boyitishni ustvor vazifa deb biladi. Zamonaviy ko‘rinishdagi xar qanday ijtimoiy taraqqiyot an’anaviy qadriyatlarni inkor qilmaydi. Xar bir etnik birlik rivojida islohotlar jarayoni an’anaviy xususiyatlarga asoslanmas ekan, bunday yangilanishlar xalq ruhiyatidan, dunyoqarashidan joy olmaydi. Darhaqiqat mamlakatimizdagi o‘zgarishlar millatimiz orzu istaklarini o‘zida ifoda etgani bilan ahamiyatlidir. Ijtimoiy taraqqiyotning an’anaviy qadriyatlarni bilan hamohangligi xalqimizning sharqona xususiyatlari va turmush-tarzida aniqroq namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda an’anaviy qadriyatlarni negizida inson xulq-atvori, imon-e’tiqodi va ma’naviy dunyosini yuksaltirish maqsadi yotadi. Darhaqiqat biz uchun zamonaviy jamiyatga xos xususiyatlarni hisoblangan demokratik institutlar, boshqaruv usullarini emas, aksincha, insonning ichki ma’naviy dunyosini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. “Zamonaviylik”ni targ‘ibotchilari hisoblangan G‘arb davlatlari hayotida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni yuksakligi emas, balki, iqtisodiyoti endi rivojlanayotgan etnoslar yashash-tarziga, an’ana va urf-odatlariga bepisand qarash holatlari kuzatilmoqda.

Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

Xulosa. Bizningcha, ular moddiy taraqqiyot va harbiy kudratga ega xalqnigina hurmat qilish kerak deb o'ylashadi. Dunyodagi globalashuv jarayonlari bizning sayyoramiz xalqlarini ham moddiy, ham ma'naviy-ruhiy jihatdan birlashtirib borayotgan bir sharoitda, er deb atalmish planetamizdagi xar bir davlatning o'z o'rni, mas'uliyati, vazifalari, burchi hamda ‘hurmat’i bo‘lishi zarurligini taqozo qiladi. O'z o'rnnini bilmagan, “zamonaviylashuv” niqobini kiyib olib, duch kelgan eshikka boshini suqib ko‘radigan davlatning vaqtlar kelib, “ajdod”lar oldida nomusga qolishi muqarrardir. Chunki andishasizlik, takabburlik, ma'naviy mahdudlik xar qanday xalqni, millatni ma'naviy tanazzuliga sabab bo‘lganini tarix ko‘p bora guvohi bo‘lgan.

. Umuman olganda, yuqoridagi fikrlarni xulosa qilib aytganda, xar qanday ko‘rinishdagi jamiyat taraqqiyoti ushbu jamiyat a’zolari ehtiyoj va manfaatlari, asriy an’ana va udumlari negizida vujudga keladi va rivojlanadi. Bu o‘rinda mavjud tizimning vazifasi hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan barcha islohotlar voqe’likdagi xalqning “o‘zak tomiri” bo‘lgan an’anaviy qadriyatlarni mazmun-mohiyatini saqlagan holda zamonaviylashtirishdir. Shu o‘rinda V Vasovich “taraqqiyotning G‘arb modelidan voz kechib, har bir xalq, har bir davlat o‘z sivilizatsiya an’analariga tayanishi”[4] to‘g‘ri va yagona yo‘l ekanini ta’kidlasa, V Shapovalov esa ”o‘z asosidagi modernizatsiya, in’ikos etuvchi va ergashuvchi modernizatsiyadan farq qilgan holda, mazkur mamlakatning milliy va sivilizatsiyaviy xususiyatlarini, an’analarini ehtiyyot qilish, madaniy xususiyatlar va o‘ziga xoslikni hisobga olishni taqozo etadi”[5] degan fikrlari ushbu qarashlarimizni amaliy isbotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Shavkat Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – B.34

Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик / Асқар Маҳкам таржимаси. – Т.: Шарқ, 2001. – 395 б

Дугин А. Трансформация политических структур и институтов в процессе модернизации традиционных обществ. М., Ростов-на-Дону, 2004. стр. 112

Восович В. Переход и демократия в посткоммунистических странах (парадоксы перехода и демократизации) 1998.

Шаповалов В.Ф. Основы философии современности. К итогам XX века. М., Флинта-Наука, 1998. С.121.